

**MUSTAQILLIKDAN KEYINGI DAVR: ZAMONAVIY RUS
TARIXSHUNOSLIGIDA TURKISTON QO‘ZG‘OLONI****Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li**

Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchi

e-mail: anvarabduqahhorov34@gmail.com +998904450316

ORCID ID 0009-0004-4836-9867

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1916-yilgi Turkiston qo‘zg‘olonining zamonaviy rus tarixshunosligidagi talqinlari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyin bu mavzuga bo‘lgan yondashuvlar xilma-xilligi, tarixiy voqealarning milliy, siyosiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baholanishi ochib beriladi. Asarda V. Buldakov, A. Ganin, T. Leontyeva, S. Abashin, R. Pochekaev kabi tarixchilarning qarashlari solishtirilib, ularning yondashuvlaridagi farqlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Rus tarixshunosligi, mustamlaka siyosati, tarixiy xotira, zamonaviy yondashuvlar, og‘zaki tarix, tarixiy tahlil, tarixiy adolat, milliy ong.

1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishdi. Bu o‘zgarishlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki tarixshunoslikda ham tub burilishlarga sabab bo‘ldi. Endilikda Turkiston xalqlari o‘z tarixini o‘zlari yozish, o‘zlikni anglash asosida qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shunga qaramay, Rossiyada yozilgan zamonaviy tarixiy asarlar hanuzgacha ushbu mavzuga nisbatan turlicha yondashuvni aks ettiradi.

Zamonaviy rus tarixshunosligida 1916-yilgi qo‘zg‘olon hali ham bahsli mavzu bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotchilarning ba‘zilari bu voqeani milliy ozodlik harakati sifatida tan olsa, boshqalari uni qo‘zg‘olon emas, balki mahalliy notinchlik, hatto vahshiyliklar sifatida talqin qilishga urinadi.

Masalan, rus tarixchisi V. Buldakov o‘z asarlarida 1916-yilgi voqealarga "qonli marosim", "genotsid xususiyatidagi repressiyalar" deb baho beradi⁴. U hukumat tomonidan qo‘llanilgan jazo choralarini tanqid qilgan holda, bu holatni 1915-yildagi armanlar qatliomi bilan qiyoslaydi. Buldakovga ko‘ra, bu zo‘ravonliklar oqibatida yuz minglab Turkiston fuqarolari, xususan, ayollar, qariyalar va bolalar halok bo‘lgan yoki Xitoyga qochishga majbur bo‘lgan.

Shunga qarama-qarshi pozitsiyani A. Ganin ilgari suradi. U 1916-yilgi voqealarni "Turkiston qo‘zg‘oloni" deb emas, balki "milliy-diniy isyon" sifatida

⁴ Булдаков В., Леонтьева Т. Война, породившая революцию: Россия, 1914—1917 гг. Москва, 2015. — 720 с.

talqin etadi. Ganinning fikricha, bu harakatlar xalq manfaatlarini emas, balki etnik va konfessional qarama-qarshiliklarni ifoda etgan⁵. U isyonchilarni “g‘alayonchilarga”, voqeani esa “separatistik xarakterga ega bo‘lgan mahalliy qirg‘in”ga tenglashtiradi. Ganin bu bahosini arxiv hujjatlariga asoslaydi, biroq ularning tanlanish mezonlari ham, talqini ham keskin tanqid ostida qolmoqda. Zamonaviy rus tarixchilari orasida yana bir e‘tiborga molik tadqiqotchi — T. Leontyeva, u V. Buldakov bilan birga yozgan “Inqilobni tug‘dirgan urush” nomli asarda 1916-yilgi voqealarni Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi⁶. Ular o‘z asarlarida imperiyaning ichki siyosiy beqarorligini, millatlararo ziddiyatlarni va safarbarlik siyosatining yomon oqibatlarini alohida tahlil qilganlar. Ularga ko‘ra, aynan Markaziy Osiyodagi bosim siyosati eng fojiali natijalarni keltirib chiqargan.

Yana bir muhim tadqiqotlar to‘plami — 2015-yil sentabr oyida Moskvada o‘tkazilgan xalqaro konferensiya materiallaridir. Ushbu anjumanda Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qirg‘izistondan kelgan tarixchilar o‘z ma‘ruzalari bilan qatnashib, 1916-yilgi qo‘zg‘olonning sabablari, oqibatlari va tarixiy saboqlari haqida fikr yuritganlar. Biroq bu anjuman ham yagona xulosa yoki umumiy pozitsiyani shakllantirmagan, balki turfa yondashuvlarning yig‘indisi bo‘lib qolgan.

Ayrim tadqiqotchilar tashqi siyosiy omillar, xususan, Usmonlilar imperiyasi va Germaniyaning Turkiston voqealaridagi ishtirokini ham tahlil qilgan. Masalan, A. Vasilev o‘z maqolasida Istanbul orqali yetgan diniy ta’sirlar haqida yozar ekan, bu omillar qo‘zg‘olonning asosiy sababi emas, balki uni kuchaytirgan omil sifatida baholaydi. I. Barinov esa Germaniyaning Turkistondagi vaziyatga yuzaki qaragani, aniq strategik rejasi bo‘lmaganini ta’kidlaydi. S. Abashin esa zamonaviy tarixshunoslikda muhim va betaraf yondashuv bilan ajralib turadi. U 1916-yilgi qo‘zg‘olonn bir tomonlama mustamlakachilikka qarshi kurash sifatida emas, balki O‘rta Osiyo jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlarning murakkab aks ettiruvchisi sifatida talqin qiladi⁷. Abashinga ko‘ra, bu voqea ichki guruhlar o‘rtasidagi tengsizlik va noroziliklar natijasidir. U, ayniqsa, og‘zaki tarixga, xalq xotirasiga murojaat qilish zaruratini urg‘ulaydi.

Yana bir olim R. Pochekaev esa 1916-yilgi voqealarning Buxoro va Xiva xonliklari bilan munosabatlarga qanday ta’sir qilganini tahlil qiladi. Uning fikricha, imperatorlik siyosati mazkur xonliklarga nisbatan avval belgilangan huquqiy rejimlarni o‘zgarishsiz

⁵ Ганин А. Последняя полуденная экспедиции императорской России: Русская армия на подавлении туркестанского мятежа 1916—1917 гг. // Русский сб. Исследования по истории России. — Москва, 2008. — С. 152—214.

⁶ Булдаков В., Леонтьева Т. Война, породившая революцию: Россия, 1914—1917 гг. — Москва, 2015. — 720 с.

⁷ Abashin S. «The Central Asian Revolt of 1916: A Collapsing Empire in the Age of War and Revolution». London: Hurst Publishers, 2019.

qoldirgan, ammo bu siyosat amalda ularni to‘liq bo‘ysundirishga qaratilgan bo‘lgan.

Umuman olganda, 1991-yildan so‘nggi davr rus tarixshunosligi 1916-yilgi Turkiston qo‘zg‘oloniga nisbatan turlicha yondashuvlar, qarama-qarshi baholar va siyosiy nuqtayi nazarlarning to‘qnashuvini ifodalaydi⁸. Bu davrda ba‘zi tarixchilar tarixiy haqiqatga yaqinlashishga harakat qilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik hanuzgacha eski mafkuraviy stereotiplardan voz kechmagan. Shu bois, bu mavzuni o‘rganishda zamonaviy, manbaga asoslangan, betaraf va ko‘p tomonlama yondashuv — Turkiston tarixiy xotirasining tiklanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. 1916-yilgi Turkiston qo‘zg‘oloni – bu faqat tarixiy bir voqea emas. Bu, aslida, butun mintaqa xalqlarining o‘z erki, g‘ururi va tarixiy qadriyatlari uchun bergan signalidir. Qo‘zg‘olon mustamlakachilik siyosatining zo‘ravon mohiyatiga, mahalliy aholining yer va mehnat huquqlarining poymol etilishiga, siyosiy kamsitish va madaniy bostirishga qarshi tabiiy javob bo‘lgan.

O‘tgan asr davomida bu voqeaning talqin etilishi doimiy ravishda siyosiy kon‘yunkturaga bog‘liq bo‘ldi. Sovet davrida u marksistik-leninchi mafkura asosida sinfiy kurash timsoliga aylantirildi. Mustamlakachilikka qarshi bo‘lgan har qanday harakat “sinfiy dushman” obraziga yo‘naltirildi. Mustaqillikdan so‘ng esa, bu voqeaga qayta baho berish ehtiyoji tug‘ildi. Bugungi kunda Turkiston xalqlari ushbu tarixiy xotirani qayta tiklash, uni o‘z milliy ongining ajralmas qismiga aylantirish yo‘lida dadil odimlamoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 1916-yilgi qo‘zg‘olon har doim ham yagona, uyushgan, oldindan rejalashtirilgan harakat bo‘lmagan. U ko‘pincha mahalliy sharoitlar, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy beqarorlik va oddiy insoniy norozilik asosida chaqnagan. Ba’zi hollarda u bexosdan, o‘z-o‘zidan vujudga kelgan bo‘lsa, ayrim hududlarda mahalliy rahnamolar tomonidan boshqarilgan. Demakki, qo‘zg‘olon har doim ham klassik inqilobiy harakatlar shakliga to‘g‘ri kelmas edi, ammo bu uning tarixiy ahamiyatini aslo kamaytirmaydi.

Yana bir muhim masala – bu xalq xotirasi. Rasmiy tarixiy matnlar, arxiv hujjatlari va ilmiy maqolalardan tashqari, 1916-yil voqealari haqida xalq og‘zaki ijodi, qo‘shiqlar, rivoyatlar va yodgorliklar orqali saqlanib qolgan⁹. Aynan mana shu manbalar voqeaning ruhiy va ma’naviy jihatini ochib berishi, insoniy fojialarni, ishonchni, jasoratni va iztirobni aks ettirishi mumkin. Afsuski, uzoq yillar davomida bu manbalar e’tiborsiz qoldi, endi esa ularni qayta tiklash va ilmiy muomalaga kiritish vaqti keldi.

Zamonaviy tarixshunoslikning asosiy vazifasi – bu voqealarni siyosiy talqinlardan

⁸ Khalid, A. (2006). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press..

⁹ Morrison, A. (2008). Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India. Oxford University Press.

holi holda, imkon qadar betaraf va manbaga asoslangan tarzda yoritishdir. 1916-yilgi Turkiston qo‘zg‘oloni – bu xalq kurashi, bu tarixiy og‘riq, bu haqiqatni izlash yo‘li. Shunday ekan, bu mavzuni o‘rganishda yangi metodologiyalar, jumladan oral history (og‘zaki tarix), madaniy antropologiya, mustamlakachilik postnazariyalari va xalq psixologiyasi bilan bog‘liq yondashuvlar albatta o‘z o‘rnini topmog‘i lozim.

Bugun, qo‘zg‘olonning yuz yillik xotirasi ortda qolarkan, biz shuni anglashimiz zarurki: bu faqat tarixiy saboq emas, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixdan saboq olish, adolatli jamiyat sari intilishning yo‘li hamdir. Turkiston xalqlarining bu jasoratli harakati hech qachon unutilmasligi kerak. Bu tarix – bizning umumiy xotiramiz, bizning haqiqatimiz, bizning kelajagimizga olib boradigan yo‘lining poydevoridir

Foydalanilgan adabyotlat

1. Abashin, S. *The Central Asian Revolt of 1916: A Collapsing Empire in the Age of War and Revolution*. London: Hurst Publishers, 2019
2. Khalid, A. (2006). *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press..
3. Morrison, A. (2008). *Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India*. Oxford University Press.
4. Becker, S. (2004). *Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924*. RoutledgeCurzon.
5. Булдаков В., Леонтьева Т. Война, породившая революцию: Россия, 1914—1917 гг. Москва, 2015. — 720 с
6. Ганин А. Последняя полуденная экспедиции императорской России: Русская армия на подавлении туркестанского мятежа 1916—1917 гг. // Русский сб. Исследования по истории России. — Москва, 2008. — С. 152—214.